

FAKTORING XIZMATLARI BOZORI

SHARHI

2025-yil yakuni bo'yicha


Mazkur **Faktoring xizmatlari bozori sharhi** O'zbekiston Respublikasida mahalliy va xalqaro faktoring xizmatlarining joriy holati, ularning rivojlanish yo'nalishlari, hududlar va iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi qamrovi hamda kredit tashkilotlarining faktoring xizmatlarida qo'llanilayotgan diskont stavkalari to'g'risidagi ma'lumotlarni yoritadi.

Mahalliy faktoring amaliyotlari tahlili

2025-yilda kredit tashkilotlari tomonidan jami **9,5 trln** so'mlik faktoring xizmatlari ko'rsatilib, ushbu xizmatlarning 8,8 trln so'mi yoki **93 foizi** tijorat banklari va **699 mlrd** so'mi yoki **7 foizi** mikromoliya tashkilotlari hissasiga to'g'ri kelgan (1-rasm).


Bunda, ko'rsatilgan faktoring xizmatlarining **4,4 trln** so'mi yoki **46 foizi** raqamli faktoring xizmatlari hissasiga to'g'ri kelib, ushbu faktoring xizmatlarining **2,5 trln** so'mi (58 foiz) "Ozplanet" elektron faktoring platformasi, **1,8 trln** so'mi (42 foiz) "Finmakon" elektron faktoring platformasi orqali amalga oshirilgan (2-rasm).

1-rasm. Kredit tashkilotlari tomonidan ko'rsatilgan faktoring xizmatlari hajmi, mlrd so'm



■ Tijorat banklari
■ Mikromoliya tashkilotlari


2-rasm. Faktoring xizmatlari hajmi, mlrd so'm



■ Raqamli faktoring xizmatlari
■ An'anaviy faktoring xizmatlari
■ FinMakon
■ oz planet

Biznes vakillarining aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojlarini faktoring xizmati orqali moliyaviy ta'minlashning ortishi natijasida 2024-yilda faktoring xizmatlari bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich dekabr oyida **630 mlrd** so'mni tashkil etgan bo'lsa, mazkur ko'rsatkich 2025-yil dekabr oyida ikki barobar o'sib, **1,2 trln** so'mga yetdi. (3-rasm).

3-rasm. Kredit tashkilotlari tomonidan 2024–2025-yillarda ko'rsatilgan faktoring xizmatlarining dinamikasi, mlrd so'm



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari


2025-yil davomida tadbirkorlik subyektlariga davlat ulushi mavjud tijorat banklari tomonidan jami **5 trln so'm** (56 foiz), xususiy banklar tomonidan jami **3,8 trln so'm** (44 foiz) miqdoridagi faktoring xizmatlari taqdim qilingan.

Xususan, davlat ulushi mavjud tijorat banklarida eng ko'p faktoring operatsiyalari **Asaka bank** (1,5 trln so'm shundan, elektron platforma orqali 508 mlrd so'm), **O'zmilliybank** (921 mlrd so'm, 801 mlrd so'm) va **O'zsanoatqurilishbank** (761 mlrd so'm, 720 mlrd so'm) tomonidan ko'rsatilgan.

Shuningdek, xususiy banklar orasida **Kapitalbank** – **1,3 trln so'm** (31 mlrd so'm), **Hamkorbank** – **909 mlrd so'm** (246 mlrd so'm) va **Asia Alliance bank** – **354 mlrd so'm** (194 mlrd so'm) bilan faktoring xizmatlarini ko'rsatishda yetakchilik qilgan.

Shu bilan birga, mikromoliya tashkilotlari tomonidan ushbu davrda jami **699 mlrd so'mlik** debitorlik qarzdorliklar moliyalashtirilgan (4-rasm).


4-rasm. Kredit tashkilotlari kesimida 2025-yilda ko'rsatilgan faktoring xizmatlari miqdori, mlrd so'm



Bugungi kunda, tijorat banklarining qisqa muddatli moliyalashtirish xizmatlarida faktoring xizmatlarini alternativ yechim sifatida keng ko'lamda ommalashtirish choralari ko'rilmogda.

Natijada, 2024-yilning II yarim yilligida ko'rsatilgan faktoring xizmatlarining qisqa muddatli moliyalashtirishga nisbati 1 foizdan (iyul) 6,1 foizga (dekabr) oshgan bo'lsa, 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida ushbu ko'rsatkich 4,5 foizdan 11,1 foizga yetdi (5-rasm).

5-rasm. 2024–2025-yillarda ko'rsatilgan faktoring xizmatlarining qisqa muddatli moliyalashtirishdagi ulushi, foiz




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Hududlar kesimida 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan faktoring xizmatlarining asosiy qismi Toshkent shahri (4,1 trln so'm yoki 43,3 foiz), Andijon viloyati (1,9 trln so'm yoki

20,4 foiz), Toshkent viloyati (859 mlrd so'm yoki 9,1 foiz) va Farg'ona viloyatiga (543 mlrd so'm yoki 5,7 foiz) to'g'ri kelgan bo'lsa, Surxondaryo viloyati (67 mlrd so'm yoki 0,7 foiz), Sirdaryo viloyati (47 mlrd so'm yoki 0,5 foiz) va Jizzax viloyatida (45 mlrd so'm yoki 0,5 foiz) eng past ko'rsatkich qayd etilgan (6-rasm).

6-rasm. Hududlar kesimida 2025-yil davomida ko'rsatilgan faktoring xizmatlari miqdori, foiz




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Mijozlarning tashkiliy shakli bo'yicha ko'rsatilgan faktoring xizmatlari taqsimotida eng yuqori ulush mas'uliyati cheklangan jamiyatlarga to'g'ri kelib, ularga 6,2 trln so'm yoki jami xizmatlarning 65,4 foiz miqdorida faktoring xizmatlari ko'rsatilgan bo'lib, aksiyadorlik jamiyatlariga 1,8 trln so'm yoki 19 foiz miqdorida faktoring xizmatlari ko'rsatilgan.

Shuningdek, chet el kapitali ishtirokidagi korxonalarning 1,3 trln so'mlik (13,3 foiz) hamda xususiy, oilaviy korxonalar va fermer xo'jaliklarining 218 mlrd so'mlik (2,3 foiz) debitorlik qarzlari faktoring xizmatlari orqali moliyalashtirilgan (7-rasm).

7-rasm. Faktoring xizmatlarining korxonalar tashkiliy shakli bo'yicha taqsimoti, mlrd so'm




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Jami faktoring xizmatlarining 246 mlrd so'mi yoki 3 foizi yillik aylanma mablag'lari 1 mlrd so'mgacha bo'lgan tadbirkorlik subyektlariga (mikromoliya tashkilotlari 218 mlrd so'm, tijorat banklari 28 mlrd so'm), 556 mlrd so'mi yoki 6 foizi aylanmasi

1 mlrd so'mdan 10 mlrd so'mgacha bo'lgan tadbirkorlarga, 1,7 trln so'mi yoki 18 foizi aylanmasi 10 mlrd so'mdan 100 mlrd so'mgacha bo'lgan tadbirkorlarga va 7 trln so'mi yoki 73 foizi aylanmasi 100 mlrd so'mdan ortiq bo'lgan tadbirkorlarga ko'rsatilgan (8-rasm).

8-rasm. Tadbirkorlik subyektlarining yillik aylanmalariga ko'ra toifalarganda faktoring xizmatlaridan foydalanish tahlili, mlrd so'm




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari


Muddatlar qirqimida 30 kungacha faktoring xizmatlari jami faktoring xizmatlarining 23 foizini (2,2 trln so'm), 31 kundan 60 kungacha – 21 foizini (1,9 trln so'm), 61 kundan 90 kungacha – 38 foizini (3,6 trln so'm), 91 kundan 120 kungacha – 8 foizini (0,7 trln so'm) hamda 121 kundan 180 kungacha - 10 foizini (1 trln so'm) tashkil qilgan (9-rasm).

Miqdorlar bo'yicha 100 mln so'mgacha faktoring xizmatlari jami faktoring xizmatlarining 1 foizini (0,08 trln so'm), 100 mln so'mdan 500 mln so'mgacha 8 foizini (0,7 trln so'm), 500 mln so'mdan 1 mlrd so'mgacha 6 foizini (0,5 trln so'm), 1 mlrd so'mdan 5 mlrd so'mgacha 35 foizini (3,3 trln so'm) hamda 5 mlrd so'mdan yuqori bo'lgan faktoring xizmatlari 50 foizini (4,8 trln so'm) tashkil qilgan (10-rasm).

9-rasm. Faktoring xizmatlari muddatlari bo'yicha tahlili, foiz



10-rasm. Faktoring xizmatlari miqdorlari bo'yicha tahlili, foiz




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Iqtisodiyot tarmoqlari kesimida faktoring xizmatlarining asosiy qismi sanoat sohasiga yo'naltirilib, 4,5 trln so'm yoki jami hajmning 48 foizini tashkil etgan. Savdo va xizmat ko'rsatish sohasiga 4,1 trln so'm yoki 44 foiz yo'naltirilgan.

Shuningdek, qurilish va qishloq xo'jaligi sektorlarida mos ravishda 391 mlrd so'mlik (4 foiz) va 409 mlrd so'mlik (4 foiz) debitorlik qarzdorliklar moliyalashtirilgan (11-rasm).

11-rasm. Iqtisodiyot sohalari bo'yicha ko'rsatilgan faktoring xizmatlari, foiz




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Xalqaro faktoring amaliyotlari tahlili

2025-yilda tijorat banklari tomonidan 642 mlrd so'm ekvivalentidagi (jamiga nisbatan 7%) regress huquqi bilan xalqaro faktoring xizmati ko'rsatildi (12-rasm).


12-rasm. Kredit tashkilotlari tomonidan ko'rsatilgan xalqaro faktoring xizmatlari hajmi, mlrd so'm



Xalqaro faktoring operatsiyalarida banklar bo'yicha eng yuqori hajm Asakabank (29,9 mln dollar yoki 56 foiz), Mikrokreditbank (7,2 mln dollar yoki 14 foiz), Biznesni rivojlantirish banki (7,4 mln dollar yoki 14 foiz) tomonidan ko'rsatilgan.

Shuningdek, O'zmilliybank 4,4 mln dollar (9 foiz), Turon bank 2,4 mln dollar (5 foiz), Ipak yo'li banki 1,2 mln dollar, 122 ming evro va 9,9 mln rubl (3 foiz) miqdoridagi xalqaro faktoring operatsiyalarini amalga oshirgan (13-rasm).


13-rasm. Tijorat banklari tomonidan ko'rsatilgan xalqaro faktoring xizmatlari, ming (dollar, yevro va rubl)



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Mijozlarning tashkiliy shakli bo'yicha ko'rsatilgan xalqaro faktoring xizmatlarining taqsimotida eng yuqori ulush mas'uliyati cheklangan jamiyatlarga (600 mlrd so'm yoki 93,5 foiz) to'g'ri kelgan bo'lsa, keyingi o'rinlarda xususiy, oilaviy korxona va fermer xo'jaliklarining 37 mlrd so'mlik (5,8 foiz) va chet el kapitali ishtirokidagi korxonalarning 4 mlrd so'mlik (0,6 foiz) debitorlik qarzlari faktoring xizmatlari orqali moliyalashtirilgan (14-rasm).

14-rasm. Xalqaro faktoring xizmatlari korxonalar tashkiliy shakli bo'yicha tahlili, mlrd so'm



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Muddatlar qirqimida 30 kungacha xalqaro faktoring xizmatlari jami xalqaro faktoring xizmatlarining 40 foizini (258 mlrd so'm)

31 kundan 60 kungacha – 9 foizini (55 mlrd so'm), 61 kundan


90 kungacha – 26 foizini (166 mlrd so'm), 91 kundan

120 kungacha – 9 foizini (58 mlrd so'm) hamda 121 kundan

180 kungacha - 16 foizini (105 mlrd so'm) tashkil qilgan (15-rasm).


Miqdorlar bo'yicha 500 mln so'mgacha xalqaro faktoring xizmatlari jami xalqaro faktoring xizmatlarining 2 foizini (11 mlrd so'm), 500 mln so'mdan 1 mlrd so'mgacha 3 foizini (17 mlrd so'm), 1 mlrd so'mdan 5 mlrd so'mgacha 20 foizini (126 mlrd so'm), 5 mlrd so'mdan yuqori bo'lgan faktoring xizmatlari 76 foizini (488 mlrd so'm) tashkil qilgan (16-rasm).

15-rasm. Xalqaro faktoring xizmatlari muddatlari bo'yicha taqsimoti, foiz



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari


16-rasm. Xalqaro faktoring xizmatlari miqdorlari bo'yicha taqsimoti, foiz



Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha xalqaro faktoring xizmatlarining asosiy qismi savdo va xizmat ko'rsatish sohasiga yo'naltirilib, 418 mlrd so'm yoki jami hajmning 65 foizini tashkil etgan. Sanoat tarmog'iga 206 mlrd so'm yoki 32 foiz mablag'lar yo'naltirilgan.

Shuningdek, qishloq xo'jaligi sektorlarida 18 mlrd so'mlik (3 foiz) debitorlik qarzdorliklari moliyalashtirildi (17-rasm).


17-rasm. Iqtisodiyot sohalari bo'yicha ko'rsatilgan xalqaro faktoring xizmatlari, foiz



Xalqaro faktoring xizmatlarining asosiy qismi Tojikiston (251,4 mlrd so'm yoki 39 foiz) va Rossiya (216,3 mlrd so'm yoki 33,7 foiz) davlatlariga amalga oshirilgan eksport operatsiyalari bo'yicha yuzaga kelgan debitorlik qarzdorliklarini moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan.

Shuningdek, xalqaro faktoring xizmatlarining qolgan qismi Qozog'iston (66 mlrd so'mlik yoki 10,3 foizi), Qirg'iziston (63,5 mlrd so'm yoki 9,9 foizi), Belarus (12,4 mlrd so'm yoki 1,9 foizi), Polsha (11,5 mlrd so'm yoki 1,8 foizi), BAA (10,9 mlrd so'm yoki 1,7 foizi), Buyuk Britaniya (6,6 mlrd so'm yoki 1 foizi), AQSh (1,3 mlrd so'm yoki 0,2 foizi), Italiya (1,2 mlrd so'm yoki 0,2 foizi) va Shveysariya (0,5 mlrd so'm yoki 0,1 foizi) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan (18-rasm).

18-rasm. Xalqaro faktoring xizmatlarining davlatlar kesimidagi tahlili, mlrd so'm




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Faktoring xizmatlari diskont stavkasi

Tijorat banklari tomonidan mahalliy va xalqaro faktoring xizmati bo'yicha bank mahsulotlari ishlab chiqilgan bo'lib, faktoring xizmat turlarining muddatlaridan (180 kungacha) kelib chiqqan holda diskont stavkalari belgilangan (19-rasm).

19-rasm. Kredit tashkilotlarining faktoring xizmatlarida qo'llanilayotgan diskont stavkalari



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari